

KARTALARDA YOZUVLARNI JOYLASHTIRISHNING UMUMIY MASALALARI

Behruz Mallayev Qo'ldosh o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

E-mail: behruzmallayev1996@gmail.com

Bobur Saitmurotov Sobir o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

E-mail: bobursaitmurotov7@gmail.com

Annotatsiya. Aksariyat karograflar uchun kartadagi yozuvlarni loyihalash va joylashtirish oxirgi vazifa sifatida qaraladi. Bu salbiy natijaga olib kelishi mumkin. Ko'pchilik hollarda butun kartaning qurilishi va ko'rinishi uning yozuvlariga bog'liq bo'ladi, shu sababdan ular dizayniga yengil qaramasik lozim. Ushbu maqolada kartalarda yozuvlarni joylashtirishning umumiy qoidalari yoritilgan bo'lib, bunday usullarda yozuvlarni joylashtirish kartaning sodda hamda tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar. Kartadagi yozuvlar, toponimlar, gidronimlar, oronimlar, etnonimlar, zoonimlar.

Аннотация. Для большинства картографов разработка и размещение надписей на карте считается последней задачей. Это может привести к отрицательному результату. Во многих случаях конструкция и внешний вид всей открытки зависят от ее надписей, поэтому к их оформлению не следует относиться легкомысленно. В этой статье рассмотрены общие правила размещения надписи на картах, а размещение надписи такими способами обеспечит простоту и понятность карточки.

Ключевые слова. Надписи на карте, топонимы, гидронимы, оронимы, этнонимы, зоонимы.

Kartadagi yozuvlar deganda kartadagi yordamchi va qo'shimcha elementlar tarkibidagi emas, balki bevosita karta mazmunini beruvchi, ya'ni kartografik tasvirdagi yozuvlar tushuniladi. Ba'zi kartograflar kartalardagi yozuvlarni "zaruriy nuqson" deyishadi, chunki ular tasavvurni to'ldirib yuboradi va murakkablashtiradi. Yozuvlar kartaga tushirilganda vizual ko'rinishning muhim elementiga aylanadi. Ular e'tiborimizni tortadi va boshqa belgilarni xiralashtiradi. Amalda, kartaning grafik sifati ko'p jihatdan yozuvlar shakli va joylashtirilishiga bog'liq.

Shrift turini tanlash, yozuvlarni tayyorlash va ularni joylashtirishning barchasi birgalikda "kartadagi yozuvlar" deb ataladi. Nomlar soni ko'p yoki xilma-xil bo'lganda, bu kartograik jarayonning eng murakkab va ko'p vaqt talab etadigan qismiga aylanadi. Kompyuterlar yozuvlarni tanlash va joylashtirishda qulaylik tug'diradi, biroq kompyuter usullari ham ayrim hollarda kartograf aralashuvini talab etadi.

Umumgeografik kartalarning qulayligi yozuvlar va ularning joylashuviga juda bo'g'liq. Nomlarni topish va ularni o'qib tegishli hodisalarni anglash umumgeografik kartalarning funksional imkoniyatlarini belgilaydi. Mavzuli kartada yozuv umumgeografik kartalardagi kabi qator funksiyalarga ega bo'lmasa-da, biroq u ortiqcha e'tibor tortmay, kommunikatsiyani oshirish uchun beriladi.

Yozuv ham kartadagi boshqa belgilar kabi belgi – simvoldir, biroq uning vazifasi ko'pchilik belgilarga qaraganda ancha murakkabroq.

Yozuvlar 3 xil vazifani bajarishi mumkin:

- 1) joylashgan o'rinni ko'rsatish (shaharlar);
- 2) chiziqli obyektlar yo'nalishi va uzunligini ko'rsatish (tog'lar kabi);
- 3) obyektlar shakli va maydonini belgilash (viloyatlar yoki davlatlar).

Kartadagi yozuvlar karta mazmunini boyitadi shu bilan bir qatorda ba'zi kartani o'quvchanligini qiyinlashtiradi. Shuning uchun karta yaratilayotganda undagi yozuvlarni soni va joylashtirishni me'yoriy holatda bo'lishini e'tiborga

olish zarur. Kartadagi yozuvlarni 3 guruhga bo'lish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Kartadagi yozuvlar		
Toponimlar	Atamalar	Tushuntirish holatlari
Gidronimlar	Geologik	Miqdor ko'rsatkichlar
Oronimlar	Geografik	Sifat ko'rsatkichlar
Etnonimlar	Okeanologik	Xronologik ko'rsatkichlar
Zoonimlar	Iqlimiy	Chiziqli belgilarga tushuntirish xatlari
Urbonimlar	Iqtisodiy	Geografik to'rlarga tushuntirish xatlari
Antroponimlar	Landshaftli	

Toponimlar – kartaga olish obyektlarining geografik nomlari. Ularga oronimlar (relyef elementlari nomlari), gidronimlar (suv obyektlari nomlari), etnonimlar (etnoslar nomlari), zoonimlar (hayvonot turlari nomlari) va boshqalar kiradi. Aynan ularni kartada to'g'ri yozilishi jiddiy masala hisoblanadi.

Atamalar – kartaga olish obyektlariga tegishli bo'lgan tushuncha. Bular umumgeografik, geologik, okeanologik, ijtimoiy-iqtisodiy va istalgan boshqa atamalar bo'lishi mumkin. Masalan, “provinsiya”, “iqtisodiy rayon”, “ko'rfaz”, “pasttekislik” va boshqalar.

Tushuntirish yozuvlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sifat ko'rsatkichlar (“achchiq”, “chuqur”, “terak”, “qum”, “toshloq”);
- miqdor ko'rsatkichlari (absolyut va nisbiy balandliklar, suv oqimi tezligi, chuqurligi va boshqalar);
- xronologik yozuvlar (voqea sodir bo'lgan vaqt, geografik sayohat amalga oshirilgan vaqtlar, suv ko'payish va kamayish vaqti);
- harakatdagi belgilarga tushuntirish xatlarini (dengiz va temir yo'llarda tashiladigan yuklar, Magellan sayohati);
- koordinata to'rlarini ko'rsatuvchi raqamlar va ularni nomlarini (Grinвичdan sharqda yoki g'arbda, janubiy va shimoliy qutb chizig'i) va boshqalar.

Karta tuzishda har bir yozuv tegishli obyektga aniq bog'langan bo'lishi muhim. Kartaning o'quvchanligi, axborotni uzatish aniqligi shunga bog'liq. Yozuvlarni joylashtirish, eng avvalo, obyektlarning joylashuv xususiyatlaridan kelib chiqadi:

- nuqtalarda joylashgan obyektlar (aholi punktlari va boshqalar) yozuvlari belgidan o'ng tomonda parallel bo'ylab yoki gorizontal tarzda, ya'ni kartaning shimoliy va janubiy ramkalariga parallel yoziladi. Yozuvlar boshqa belgilar juda zich bo'lganda ularni belgidan chap yoki yuqorida yoki hatto asta-sekin egrilik bilan joylashtirish mumkin;


- chiziqli obyektlar (daryolar, aloqa yo'llari, kemalar marshrutlari va h.k.) yozuvlari har doim ularning qayrilishlarini tekis takrorlagan holda chiziq bo'ylab joylashtiriladi;

- maydonli obyektlarda yozuvlar, odatda, butun maydon bo'yicha cho'zilishi uchun konturning uzun o'qi bo'ylab joylashtiriladi. Agar obyekt qayrilgan qiyofaga ega bo'lsa, yozuv ham mos ravishda qayriltirib beriladi. Faqat ayrim kichik maydonli obyektlar, masalan kichik ko'llarda yozuvlar sig'maganligi uchun yon tomonda joylashtiriladi.

Barcha holatlarda yozuvlarning kompakt joylashuviga, bir-birini kesib o'tmasligiga, boshqa shtrixli elementlarga o'tib ketmasligiga, rangli fonda yaxshi o'qilishiga, "boshi bilan quyida" joylashmaganligiga e'tibor qaratish zarur. Rasm, yozuv rangi va kegli obyektning ahamiyati yoki kattaligini ifodalashi kerak. Masalan, yirik to'g'ri shriftlar bilan davlatlar poytaxtlari, maydaroq shriftlarda viloyatlar markazlari, kursiv bilan tumanlar markazlari yoziladi. Bunda ma'lum an'anaga rioya etiladi: suv obyektlari ko'k rangda, relyef shakllari jigar rangda, aholi punktlari qora rangda beriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, yozuvlar zichligi yuqori bo'lganda, maxsus algoritmlardan foydalanilib, karta maydonida ularni optimal joylashtirish masalalari hal etiladi.

Kartani o'qish yozuvlarning joylashishi bilan juda bog'liq. To'g'ri joylashtirilgan yozuv shak-shubhasiz, o'zi tegishli bo'lgan obyektga yaqqol

ifodalaydi. Yozuvlarning joylashishi karta grafik sifatiga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatib, yozuv stillari, shakl va o'lchamlarini tanlashga bog'liq bo'ladi. Ularni noto'g'ri joylashtirish keskin rang yoki chiziqlar kontrasti kabi o'quvchi uchun noqulay bo'lishi mumkin (1-rasm).



a)



b)

1-rasm. Yozuvlarni joylashtirish qoidalari buzilgan (a) va to'g'ri (b)

qo'llanilgan karta

Bunda quyidagi asosiy holatlar hisobga olinishi kerak:

- 1) nomlar to'liq quruqlik yoki suvlikda bo'lishi kerak;
- 2) yozuvlar karta oriyentatsiyasi tuzilishiga mos yo'nalishda bo'lishi lozim. Yirik masshtabli kartalarda u kartaning yuqori yoki quyi ramkasiga parallel bo'lishi nazarda tutiladi;
- 3) mayda masshtabli kartalarda agar zarur bo'lmasa yozuv qayriltirilmasligi kerak;
- 4) turli yo'nalishdagi yozuvlar hech qachon to'g'ri chiziq bo'ylab joylashtirilmaydi, biroq biroz qiyshiq bo'lishi mumkin;
- 5) nomlar imkon qadar kam joyni egallashi kerak. Ya'ni yozuvdagi harflar orasida katta joylar bo'lmasligi kerak;

6) davom etuvchi nomlar hamda kartaning chiziqlar va tonlar kabi boshqa ma'lumotlar bo'lganda yozuvlar ma'lumotlar bilan to'qnash kelib qolsa, yozuvlar uzilmasligi kerak;

7) yozuvlar hech qachon tashqarida berilmaydi.

Kartalardagi yozuvlarni tanlash va joylashtirish bilan birga, geografik nomlar tabiatini bilishimiz zarur.

Yozuvlar bilan kuchli yuklangan ba'zi kartalarda ularni berishda ikki planlilik ishlatiladi. Aytaylik, asosiy aholi punktlari qora shriftda, ikkinchi darajalilari kulrangda yoziladi. Kartaga ilk qarashda asosiy yozuvlar ko'rinadi, qolgan barchasi esa ikkinchi planga o'tkazilgandek bo'ladi. Umuman, yozuvlar har qanday kartaning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, ularni o'z o'rnida ishlatish kutilgan natijalarga olib keladi, kartadan foydalanishda qulayliklar tug'diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Robinson, Arthur, Joel Morrison, Phillip C. Muehrcke, A. Jon Kimerling, and Steven C. Guptill. 1995. Elements of Cartography, 6th Edition. New York: John Wiley and Sons, Inc., 404 p.
2. Берлянт А.М. Картоведение. – Москва: «Аспект пресс», 2002. – 115 стр.
3. Sh, B., & Mallayev, B. (2024). SUN'IY YO'LDOSH YORDAMIDA GEODEZIK TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA TEXNOLOGIYALARI. WORLD OF SCIENCE, 7(10), 61-64.
4. Mallayev, B., & Saitmurotov, B. (2024). NIVELIRLASH YO'LLARINI LOYIHALASH, REKOGNOSSIROVKA QILISH, JOYDA MAHKAMLASH. WORLD OF SCIENCE, 7(10), 73-77.
5. Farhod, T., & Bobur, S. (2024). GIPSLIKERAMZITBETONNING INNOVASION TEXNOLOGIYASI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI. WORLD OF SCIENCE, 7(10), 83-87.
6. Ибраимова, А. А. (2018). Хариталарда географик номлар жойлаштирилишининг айрим хусусиятлари. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. Махсус сон.—Тошкент, 241-245.